


**SHOMURODOVA SHAHNOZA
G'AYRATOVNA**

**O'ZBEKISTON
GEOGRAFIYASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

SHOMURODOVA SHAHNOZA G'AYRATOVNA

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

(O'quv qo'llanma)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT-2023
«Yangi chirchiq prints»

14/12/84-

Shomurodova Sh.G' / O'zbekiston geografiyasi / O'quv-qo'llanma
Toshkent.: «Yangi chirchiq prints», 2023. – 208 bet

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston hududining tabiiy geografik o'rni, iqlimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, mamlakatimizdagi muhofaza ostiga olingan hududlar haqida keng yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning turistik obyektlari va ekoturistik salohiyati haqida batafsil bayon qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanma 61010400- Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 61010100-Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, 61010500- Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha), shuningdek, geografiya yo'nalishining bakalavrlari, magistrleri va katta ilmiy xodimlari hamda o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Sh.M.Sharipov - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Tabiiy geografiya" kafedrası dotsenti, g.f.d (DSc).

Taqrizchilar:

A.K.Urazboyev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrası g.f.d.

M.R.Go'dalov – Jizzax davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrası dotsenti, g.f.f.d (PhD).

M.M.Mahmudov – Perfect universiteti rektori g.f.f.d (PhD).

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruhsat berilgan.

ISBN 978-9910-9414-6-7

© Shomurodova Sh.G', 2023
©«Yangi chirchiq prints», 2023

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Markaziy Osiyoning marvaridi. Uning tarixiy, madaniy boyliklari, ajoyib tabiati, o'ziga xos an'analari, hatto milliy taomlarigacha bu zaminda turizmni rivojlantirish istiqbollari baland ekanligini ko'rsatib turadi.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida ko'plab sayyohlik maskanlarini tashkil etish mumkin. O'zbek xalqining betakror urf-odatları, me'moriy yodgorliklari, o'ziga xos tabiati, barcha-barchasini o'zida jam etgan turistik loyihalar O'zbekiston turizmining Yevropa bo'ylab targ'ibotiga xizmat qiladi. Chunki, mamlakatimiz katta turistik salohiyatga ega. Bu sohani rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlarimiz mavjud. Qolaversa, yurtimizda ko'plab tabiiy yodgorliklar, ko'hna va betakror obidalar mavjud bo'lib, muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega obyektlar hisoblanadi. Shu bois ularni o'rganish, muhofaza qilish, kelajak avlodga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarida turizm va geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun bilimlar tizimining eng muhim o'quv fanlaridan biridir.

Bu kursda vatanimiz - O'zbekistonning tabiat resurslari ularning turli tumanligi bir - biriga bog'liqligi tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza ostiga olish bilan birga Respublikamizning turli hududida tabiatidagi tafovutlarini bilib olish, shuningdek, mamlakatimizning turistik obyektlari, ekoturistik salohiyati haqidagi bilimingizni mustahkamlashda xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston tabiatiga umumiy tavsif berilayotganda yer usti xilma-xilligi uning geologik tuzulishi hamda O'zbekiston hududining relyefi uzoq davom etgan murakkab geologik jarayonlar oqibatida shakllanganligiga, relyefning asosiy turlariga, ularning genetik kelib chiqishiga to'xtalamiz. Shuningdek, O'zbekiston iqlimi, iqlim resurslari va ulardan foydalanish, ichki suvlar va respublikamizning turistik obyektlari, turizmning turlari batafsil bayon etiladi.

Ushbu kurs talabalarga olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. Turizm va geograf bakalavrlar uchun asosiy o'quv kurslaridan biri hisoblanadi.

§ 1. FANNING OBYEKTI VA PREDMETI. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI, TABIATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursining o'rganish obyekti, maqsadi va vazifalari
2. O'zbekistonning geografik o'rni va chegaralari
3. O'zbekistonning tabiati va tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch atamalar: *geografik o'rin, materik, mo'tadil mintaq, subtropik mintaq, kenglik, havo massalari, tabiiy sharoit.*

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining o'rganish obyekti O'zbekistonning tabiati va tabiiy sharoiti hisoblanadi. *Fanning maqsadi:* O'zbekiston tabiiy resurslari, ularning holati, bir-biriga bog'liqligi, tabiiy boyliklari, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza ostiga olish.

O'zbekiston tabiiy geografiyasining vazifalari:

- O'zbekiston yer usti tuzilishining xilma-xilligi, geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi, tektonikasi hamda tabiatning boshqa unsurlariga ta'sirini o'rganish;
- O'zbekiston relyefining asosiy turlari, ularning genetik kelib chiqishi hamda relyefining shakllanishida Yerning tashqi dinamik jarayonlar ishtirokini aniqlash;
- O'zbekistonning iqlimiy xususiyatlari, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim unusurlari (harorat, yog'in, namlik, shamol) ning hududiy

taqsimlanishi va ichki suvlari, ularning gidrologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

➤ O'zbekistonning tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, ularning turlari va tarqalishini o'rganish;

➤ O'zbekiston tabiati va tabiiy resurslarining holati, ularga ta'sir etuvchi omillar, ulardan oqilona foydalanib muhofaza ostiga olishga qaratilgan chora tadbirlarni aniqlash va o'rganish;

➤ O'zbekistonning turistik obyektlari va ularning tabiiy geografik jihatlarini o'rganadi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo'lib, mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarda joylashgan.

O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoliy-sharqida, Orol dengizi qirg'og'ida $45^{\circ} 36'$ sh.k., eng janubiy chekka nuqtasi - Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida $37^{\circ} 11'$ sh.k., eng g'arbiy nuqtasi - Ustyurt platosida $56^{\circ} 00'$ shq.u. da, eng sharqiy nuqtasi esa O'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida O'zgan shahri yonida $73^{\circ} 10'$ shq.u. dan o'tadi. O'zbekistonning eng shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa - 930 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtalari orasidagi masofa - 1425 km ni tashkil qiladi.

O'zbekistonning umumiy yer maydoni 448,9 ming km^2 yoki (44896,9 ming gektar) bo'lib, maydonining kattaligi bo'yicha jahondagi 130 dan ortiq mamlakatlardan oldinda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligida esa beshinchi o'rinda (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmanistondan keyin) turadi.

O'zbekiston, Belgiya, Gollandiya va Danya kabi davlatlarning umumiy maydonidan ham 4 marta kattadir, Shvetsariya davlati hududidan 10 marta ortiq.

O'zbekiston shimolda, sharqda va shimoliy-g'arbda tekisliklar va platolar orqali, uning eng chekka janubi-sharqiy qismi Qorjantog' va Ugom tizmalari orqali o'tadi. Sharqda Qirg'iziston bilan chegara esa Piskom, Chotqol tog' tizmalari, Farg'ona va Oloy tog' tizmalarining etaklaridan, Tojikiston bilan esa Qurama, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalari bo'ylab o'tadi. O'zbekistonning janubiy chegarasi Amudaryo orqali o'tib, uni Afg'onistondan ajratsa, g'arbiy va janubi-g'arbiy chegarasi asosan tekislikdan o'tib, O'zbekistonni Turkmanistondan ajratib turadi (1-kartaga qarang). Mamlakatimizning umumiy chegarasini uzunligi 6221 km, shundan 137 km Afg'oniston va O'zbekiston davlatlari chegarasiga tog'ri keladi.

O'zbekiston chegarasining asosiy qismi tekisliklarga to'g'ri kelishi transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulaylik tug'diradi. O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai-nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan ancha o'ziga xos geografik-strategik mavqega ega.